

**VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN  
HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI.****Isaqov Ikromjon Ilhomjon o'g'li**

Abu Rayhon Beruniy universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

**Farxutdinova Matluba Amanbayevna**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19313615>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari, ularning jamiyat va davlat uchun keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari hamda bunday holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan choratadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar, davlat siyosati va tizimli islohotlar yoritib berilgan.

Maqolada statistik ma'lumotlar asosida voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyat turlari hamda ularning ko'payishiga sabab bo'layotgan omillar, jumladan oilaviy muhit, tarbiya masalalari, ijtimoiy nazoratning sustligi va bandlik muammolari muhokama qilinadi.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish hamda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, yoshlar siyosati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jinoyatlarning oldini olish, oilaviy muhit, tarbiya, davlat siyosati, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, yoshlar huquqlari.

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarining katta qismini yoshlarning huquqlarini kafolatlash, ularni sog'lom va xavfsiz yashashlari, malakali ta'lim olishlari uchun huquqiy asos yaratuvchi huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Olib borilayotgan bu sohadagi islohotlarning tub maqsadi - mohiyati esa yurtimizning ertangi kuni, uchinchi Renesans poydevori bo'lgan yoshlarimizning, ayniqsa voyaga yetmagan yoshlarni yurt kelajagi, porloq ertasini qurishga qodir, vatan – yurt oldidagi yuksak mas'uliyatini anglay oladigan avlod qilib shakllantirishdir.

Bu oliy maqsadga erishish yo'lida yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda, mamlakatimizda barcha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilyapti. Yoshlarning eng zamonaviy ta'lim tajribalari asosida o'qishlari uchun shart-sharoit yaratishga katta e'tibor qaratilyapti.

Ta'lim olishga bo'lgan huquqni kafolatlash bir qancha qonun hujjatlarida, xususan O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida asosiy ifodasini topa olgan. Asosiy qonunimizning 14 – bobini “ Oila, bolalar va yoshlar “ deb yangi nom bilan nomlanishi., bob tarkibining qator yangi huquqiy normalar bilan boyitilgani yuqorida aytilgan fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Biroq hech bir katta natijaga shunchaki xohish – istak, maqsadni o'zi bilan erishib bo'lmaydi, maqsad yo'lida izlanish, o'zgarishlar qilish kerak.

Ushbu maqolamda men mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan barcha shart – sharoitlarga qaramay, hali – hanuz o‘zining huquq va majburiyatlarini anglay olmagan va o‘zgalarning huquqlarini hurmat qilish, jamiyatda yurish – turish qoidalarini bilib – bilmay yohud mensimaslik oqibatida buzayotgan va huquqbuzarlikka yo‘l qo‘yayotgan yoshlar, aniqroq aytsam, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquq buzilishi holatlari masalasida mulohaza yuritmoqchiman.

Dastlab voyaga yetmagan shaxslar kim ekanligini bilib olsak - voyaga yetmaganlar amaldagi qonunchilikka muvofiq o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan fuqarolar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari hamda ularni himoya qilish kafolatlari bir-qator normativ - huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo‘yilgan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi hamda Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun voyaga yetmaganlarning huquqiy holatini belgilovchi asosiy mabalar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda yoshlar huquqbuzarligini oldini olish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar sezilarli natija bermoqda, biroq kamchiliklarga ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Sir emaski, yildan – yil voyaga yetmaganlar sodir etayotgan huquqbuzarliklar, jinoyatlarning ayrim turlari sonini ortishi ham kuzatilyapti. Eng achinarlisi, ayrim hollarda voyaga yetmaganlar tomonidan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar ham sodir etilmoqda.

Statistika agentligi hisobotiga ko‘ra ,o‘tgan yili huquqbuzarlik sodir yetgan 3599 nafar voyaga yetmaganlarning 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka torilgan. Ulardan 744 nafari 13-15 yosh , 2855 nafari 16-17 yoshlardir. Qizlarning ulishi 8,7 foiz 314 kishini tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyat sodir etganlarning soni jihatidan Farg‘ona viloyatida -700 nafar, Toshkent shahrida -545, Namangan viloyati -451 va Toshkent viloyati -345 kishini tashkil etadi. Eng past ko‘rsatqichlar Jizzax -54, Navoiy -62 va Xorazmda - 66 kishini tashkil etgan. Jinoyat turlari bo‘yicha voyaga yetmaganlarning 1602 nafari o‘g‘rilik [bir yil avval 1581 nafar], 453 nafari bezorilik [248 nafar], 135 nafar fribgarlik [134 nafar] , 181 nafari talonchilik va bosqinchilik [162 nafar] jinoyatlarini sodir etgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek ming afsuski, oxirgi yillarda fuqarolar tomonidan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sezilarli darajada ko‘paygani har birimizni tashvishga solmoqda. Ayniqsa voyaga yetmaganlarning bunday jinoiy qilmishlarni sodir etishi va uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish jazosining tayinlanishi har birimizni befarq qoldirmasligi kerak deb o‘ylayman.

Fikrimni tasdiqlash maqsadida yana statistik ma'lumotlarga e'tibor qarataman. Olingan statistik ma'lumotlarga ko‘ra 2025 yilda voyaga yetmaganlarning 104 nafari qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish [74] , 54 nafari -nomusga tegish va nomusga tegishga urinish [46], 27 kishi -tovlamachilik [16] 12 nafari esa qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga urinish [ bir yil avval 10 ] jinoyatini sodir etgan .

Voyaga yetmaganlarning 57 nafari giyohvandlik vositalarni ishlab chiqarish yoki sotish. 121 nafar o‘limga olib kelmaydigan yo‘l -transport hodisalari 4 nafar qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyatlarni sodir etganlikda aybli deb topilib, jinoiy javobgarlikka tortilganlar.

Jinoyat sodir etuvchilarning tarkibi tahlil qilinganda shu aniq bo‘ldiki, ularning 2730 nafari talabalar, 510 nafari ishchilar, 148 nafari ishlamaydigan yoki o‘qimaydigan yoshlar ,190 nafari esa boshqa toifalarga mansub voyaga yetmaganlar ekanligi ma'lum bo‘ldi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning ta'lim – tarbiyasi nazorati, ularning nazoratsiz qolishlarini oldini olish, huquq va manfaatlarini qonuniy himoyalash maqsadida tizimli ishlarni

tashkil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat, tuman, shaxar, hokimliklari huzurida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar tuzilgan. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha u komissiyalarning maqsad va vazifalari quydagilardan iborat.

---- voyaga yetmaganlarning nazorasiz va qarovsiz qolishlari, huquqbuzarliklarni oldini olish;

---- voyaga yetmaganlarning noqonuniy xatti - harakatlari va huquqbuzarliklarga imkon tug'duruvchi sabablar va sharoitlar aniqlash va bartaraf qilish;

---- voyaga yetmaganlarni huquqlari va manfaatlarining himoya qilinishi ;

---- ijtimoiy jihatdan xafli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan tarbiyaviy ish olib borishni tashkil qilishi

Sir emaski, voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik yuz berishining asosiy sabablaridan biri bu oilaviy muhit, oilada yuz beryotgan muommolar bo'lishi mumkin,

chunki ota-onaning bolaga bo'lgan mehrining yetishmasligi, ota -onalarning farzandlari taqdiriga befarq munosabatda bo'lishi, ota -ona o'rtasidagi ajrimlar , nizolar, janjallar hamda ota - ona o'rtasidagi munosabatlarning keskinligi, ota - onalarning farzandlari tarbiyasi ustidan nazoratni susaytirib yuborganligi oqibatida voyaga yetmagan fuqorolar jinoyatga qo'l uradi

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksing 5 -moddasiga muvofiq ,har bir sodir yetilgan jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligin prispiga tayangan holda

Yuqorida takidlaganimdek, voyaga yetmaganlar tamonidan sodir yetilgan jinoyat uchun ham javobgarlik mavjud.

Jarima, axloq tuzatishishlari, ozodlikdan cheklash, majburiy jamoat ishlari, va ozodlikdan mahrum yetish, kabi jazolarning voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanishi qonunda belgilab qo'yilgan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.04.2022-yildagi qaroriga muvofiq, ya'ni ishsiz va o'z daromadiga yega bo'lmagan voyaga yetmagan shaxslarning bandligini ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra ish bilan band aholi soni 14,6 mln nafarni tashkil yetadi. Ishsizlar soni esa Kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash vazirligi ma'lumotiga ko'ra 800 ming nafarni tashkil yetdi.

Respublika hududida istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlarning 3,1 foizi ishsiz hisoblanadi. Ishsizlik oqibatida turli jinoyatlarni sodir yetishning oldini olish maqsadida respublikamizda o'z ish faoliyatini olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalar, fabrikalar, zavodlar va boshqa tashkilotlarda bo'sh ish o'rinlari yaratish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan topshiriqlar berilmoqda.

Bilamizki, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa tashkilotlar, davlat qo'mitalari va agentliklar tomonidan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha turli tadbirlarni o'tkazish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bulardan asosiy ko'zlangan maqsad voyaga yetmaganlarning huquqiy ongini rivojlantirish va huquqiy madaniyatini yuksaltrish, ya'ni jamiyatda amal qilayotgan huquqiy talab va normalarning mazmunini tushunish va rioya qilish hisoblanadi. Shuningdek, voyaga yetgan fuqorolarning huquqqa nisbatan hurmatini oshirish hamda davlat ta'lim tizimida huquqqa oid fanlarni ko'paytirish va rivojlantirish zarur

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.- <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024. - <https://lex.uz/docs/-111453>
3. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2008. - <https://lex.uz/docs/-1297315>
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2025. - <https://kun.uz/news/2025/03/24/100-mingga-yaqinlashgan-mamuriy-qamoq-5-barobar-oshgan-deportatsiya-ozbekistonda-huquqbuzarliklar-statistikasi>